

**BADIIY SAN'ATLAR TIZIMI VA UNING SHAFLOAT TERMIZIY IJODIDAGI
O'RNI**

Mahfuza Muxtorova

TerDU o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18093891>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shafoat Termiziy she'riyatida badiiy san'atlarning estetik va ma'naviy-falsafiy mazmunni ochishdagi o'rni tahlil qilinadi. Asarda qo'llangan tashbeh, istiora, takrir, tajnis kabi badiiy vositalarning g'oya va obrazlarni shakllantirishdagi funksiyasi misollar asosida ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda shoir uslubining o'ziga xos jihatlari, ritm va ohang bilan uyg'unlashgan badiiy vositalarning o'quvchi idrokiga ta'siri yoritiladi. Natijada, Termiziy ijodidagi badiiy san'atlar nafaqat bezak unsuri, balki asarning mazmuniy og'irligini ko'taruvchi muhim poetik omil sifatida baholanadi.

Kalit so'z: tashbeh, istiora, takrir, tajnis, ritm va ohang.

Аннотация. В данной статье анализируется роль художественных средств в раскрытии эстетического и духовно-философского содержания поэзии Шафоата Термизи. На примерах показана функция художественных средств, таких как метафора, сравнение, повторение и таджнис, используемых в произведении для формирования идей и образов. Исследование освещает специфические аспекты стиля поэта, влияние художественных средств в сочетании с ритмом и мелодией на восприятие читателя. В результате художественные средства в творчестве Термизи оцениваются не только как элемент украшения, но и как важный поэтический фактор, несущий смысловую нагрузку произведения.

Ключевые слова: метафора, сравнение, повторение, таджнис, ритм и мелодия.

Abstract. This article analyzes the role of artistic arts in revealing aesthetic and spiritual-philosophical content in the poetry of Shafoat Termizi. The function of artistic means such as metaphor, simile, repetition, and tajnis used in the work in forming ideas and images is shown on the basis of examples. The study highlights the specific aspects of the poet's style, the impact of artistic means combined with rhythm and melody on the reader's perception. As a result, the artistic arts in Termizi's work are evaluated not only as an element of decoration, but also as an important poetic factor that carries the semantic weight of the work.

Keywords: metaphor, simile, repetition, tajnis, rhythm and melody.

Shafoat Termiziy she'riyatida badiiy san'atlar ichida takrir san'ati ham alohida estetik vazifani bajaradi. Shoir ayrim so'z va obrazlarni ataylab takrorlab, o'quvchini asosiy g'oya atrofida ushlab turadi, ruhiy taranglikni bosqichma-bosqich oshiradi. Natijada she'rda paydo bo'lgan ritm va ohang ma'naviy mazmun bilan uyg'unlashib, fikrni yanada ta'sirchan qiladi.

Takrir orqali Termiziy obrazlarni jonlantiradi, xotira va tuyg'ularni uyg'otadi va shoirning ichki dunyosini o'quvchi qalbiga yaqinlashtiradi.

Takrir san'ati she'rda u yoki bu so'zni takror qo'llashni nazarda tutadi. Atoyilloh Husayniyning "Badoyi'u-s-sanoyi'" asarida ma'naviy go'zal san'at sifatida qayd etilgan "takrir" ("takror") ikki turga ajratilgan: "Birinchi turi uldirkim, lafz aynan takrorlanur

... Ikkinchi turi uldurkim, lafz emas, ma'no takrorlanur va ma'noning takrori umumiyasidan so'ng xususiyning zikridin iborat bo'lmog'i mumkin"¹.

Shoir ijodida takrirning ushbu ikki ko'rinishlarini uchramiz:

1. So'z takroridan vujudga kelgan takrir san'ati.

2. Ikki tarkibli takrorlardan hosil bo'lgan takrir san'ati.

Buyuk ajdod Termiziylar,

Mangu ustod Termiziylar.

G'urur, quvvat Termiziylar,

Termiziylar, Termiziylar.

Vatan vujudimga jon bo'b taralgan,

Vatan yuragimda sobit yaralgan.

Vatan Bobotog'im, Vatan Orolim,

Vatan dashtlarimda kezgan marolim.

Vatan men ov qilgan tog'larning zovi,

Vatan u qirdagi bobom o'tovi.

Ushbu parchalarda takrir san'atini so'z ma'nosini, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatish uchun qo'llangan va takrir bir tarkibdan tashkil topgan.

b) Ikki tarkibli takrorlardan hosil bo'lgan takrir san'ati:

Suv bo'yida soch taraydi, soch taraydi suluv qiz,

Suv ko'zguga ko'p qaraydi, ko'p qaraydi suluv qiz.

O'ynoq-o'ynoq to'lqinlarga qalbi ketar ergashib,

To'lqinlardan gap so'raydi, gap so'raydi suluv qiz.

Bandda juft so'z takrori takrir san'atini vujudga keltirgan. Ushbu band to'liq takrir san'atiga qurilgan. Aslini olganda, shoir ijodini anglash, undagi ma'noni tushunish uchun uning falsafasidan ham xabardor bo'lish kerak. Mazkur parcha shoir uslubining xalq og'zaki ijodiga xos o'ynoqligini ham namoyish ettirgan.

Ma'naviy san'atlardan bo'lgan irsoli masal va savol-u javob kabi she'riy san'atlarga ham shoir ko'p marotaba murojaat qilib, ular orqali o'zining falsafiy fikrlarini dalillash va asoslashga harakat qilgan.

"Vaqtig – baxting" degan umr o'lchar gap,

Rost tarozi ekan, men uni tanib

Qo'ygach, pallasiga o'tmishim jamlab,

G'afolat uyqusidan ketdim uyg'onib.

Shoirning to'rtlik va ruboiy kabi kichik lirik janrlarida ham mazkur san'atdan fikr asosi, uni dalillash maqsadida unumli foydalanganini ko'ramiz:

Kim senga tilasa xolis niyatni,

Yo'q deya orada kam u ziyodni.

Andishali do'stni qo'rqqoq atama,

Cho'ntagingga urma samimiyatni.

¹ Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ.— Тошкент.: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.61-62.

Yuqorida keltirilgan she'riy matnlarda xalq orasida ko'p qo'llaniladigan "Vaqtning ketdi – baxting ketdi", "Andishani otini qo'rqqoq atama" mazmunidagi fikr ifodalangan bo'lib shoirning badiiy-estetik maqsadini ifodalash uchun qo'llanilgan.

Shafoat Termiziy ijodida savol-u javob san'ati ham ko'p qo'llanilgan. Bu san'at she'r misralarida ikkita shaxs ko'pincha oshiq va mahbuba o'rtasidagi savol- javobni aks ettirish usulidir. Ushbu san'atning go'zal namunalari mumtoz va zamonaviy she'riyatimizda ham uchraydi. Shoir ham muhabbat mavzusidagi she'rlarida ushbu san'atni keltirib, lirik qahramon — oshiq yigit va yor o'rtasida samimiy suhbat lavhasini yaratgan:

So'radim shunda yorimdan: "Ko'zda yosh kulasiz-a?"

Yor dedi: "Qor erigan ko'zlarim shu'lasida".

Shafoat Termiziy ijodiy namunalarini tadqiq etarkanmiz, unda lafziy san'atlarning ham bir nechta turlari faolligi kuzatildi. Bu ta'dil san'ati bo'lib, ushbu san'at haqida mumtoz she'rshunoslik asoslarida shunday ma'lumot beriladi: "**Ta'dil** (arabcha – to'g'rilamoq) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, bir bayt tarkibida bir necha sodda otlarning ma'lum tartibda sanalishi"²dir.

Mumtoz adabiyotimizda kabi shoir ham ushbu san'atdan juda ko'p foydalangan. Uni qo'llash natijasida obrazlarning yorqinligiga erishgan. "Muallim" she'rida shoir ushbu san'atni quyidagicha qo'llaydi:

Yillar ulg'aytdi bizni, har ishga doir bo'ldik,

Ishq ko'chasida biz ham Zuhra-yu Toyir bo'ldik,

Ishchi, dehqon, ziyoli, olim-u shoir bo'ldik.

Lek ibrat-u ustozni unutmaz hech vaqt hech kim,

U totli xotiralar qutlug', murabbiy-muallim³.

Ko'ramizki, har bir inson kamolotida asosiy o'rin tutuvchi muallim siymosini gavdalantirishda **ishchi, dehqon, ziyoli, olim-u shoir** — kabi kasb-hunar otini bildiruvchi so'zlarning bir misrada sanash tartibida qo'llanilgan.

Vatanga daxldor va tan a'molim,

Til, Tug'rom, Bayrog'im — Vatan jamolim.

Shafoat Termiziy she'riyatida janrlar rang-barangligining sababchisi bo'lgan she'riy san'atlardan biri tajnis (jinsdosh)dir. Tajnis (yoki jinos) she'r baytida ma'no jihatidan har xil, ammo shakli bir xil yoki shaklan bir-biriga yaqin ikki so'zni keltirib, ular vositasida muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalash san'atidir. Shoir ayni shu san'at asosida tuyuq janrida she'rlar yozgan. Shuningdek, ayrim she'rlarida so'z o'yini tovlanishlarida tajnisdan foydalangan:

Ovunch shu, bu dunyoning hech kim bo'lmas **ustuni,**

Butlab yashang dunyoning kiyim-boshi, ustini.

Besh kunlik edi dunyo, bizlarniki uch kuni,

Mehmon kunlar xush endi, mezbon kunlar xush endi.

Yomonlarga til — tig' bo'lsin, **bolta — lab,**

² Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент.: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат, 1981. – Б. 237.

³ Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2003. – Б.52.

Tashla ular o'q ildizin **boltalab**.

Yaxshilarga til uchida shakar tut,

Kimki haq, u lablaringdan **bol talab**.

Adabiyotimizda **tazod** ham keng uchraydigan she'riy san'atlardan sanaladi.

Tazod so'zi "zid qo'yish", "qarshilantirish" ma'nolarini ifodalaydi. Shu so'z bilan ataluvchi she'riy san'at esa baytda o'zaro ma'no jihatdan zid, ya'ni qarama-qarshi ma'nodagi so'zlarni qo'llab, ta'sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi. Shoir "Havas qilaman" she'rida ayni shu so'zlar vositasida o'z badiiy maqsadiga erishib, kichik yoshdagi bolalar inson hayotida yuksak o'rinda tutishini alohida ta'kidlab ko'rsatgan.

Tulpor bo'lar mingan xivich otlaring,

Tegrang to'la jo'ralaring, yotlaring,

Qutlug' sening shohliklaring, motlaring.

Bola, mansabingga havas qilaman,

Seni ulug', o'zimni past qo'yaman.

Ushbu o'rinda tazod san'ati she'rning ta'sirchanligi hamda badiiyligini oshiribgina qolmay, unda shoirning his-tuyg'ularini ham ochib berish maqsadida qo'llangan. Shoir she'rlarida ushbu san'at ko'pincha tashbeh, istiora, tashxis qatori bir o'rinda qo'llanilgan.

Tortiq erur hislarga hislar,

Shoirilar ko'p, she'riyat bozor.

Men she'rim-la taratgan islar,

Quvonch bersin, bermasin **ozor**.

Sening qavming faqat rost yashar,

Men yashayman qavmimday yolg'on.

Azaldan bu odamlarning biri odil, biri shum,

Bo'ldi kimdan yaxshiligu, kimdan yomonlik udum.

Kim ijod sohibi — u ham shoh, ham qul,

Bir o'zi ham hukmi, xizmat-la mashg'ul.

Shohlik amri vojib dil davlatida,

Qullik zahmati ham qalbida nuqul.

Keltirilgan parchalarda tazod san'atini shakllantirgan antonimlar qo'llanilgan: quvonch — ozor, rost — yolg'on, yaxshilig' — yomonlik, shoh — qul kabi. Mazkur qarama-qarshi so'zlarning hech birining o'rnini almashtirib bo'lmaydi.

Ular orqali ijodkor o'zining hayot haqida teran fikrlarini dalillashga erishgan. Umuman, tazod san'ati shoirning o'quvchini mushohadaga chorlovchi falsafiy fikrlarini teran ifodalagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ.— Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

2. Ҳоҷиаҳмедов А. Мумтоз бадият малоҳати. – Тошкент.: Шарқ, 1999. –
3. Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003.
4. Адабиётшунослик луғати. / Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. – Тошкент.: Академнашр, 2010.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент.: Зарқалам, 2006.